JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 20-noyabr | 223-3-52-Q/24 | Paxtakor tuman hokimligi

Yo‘l belgilari hamda to‘siqlar o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi Avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari” talablari hamda 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlan to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 11-oktabrdagi 24-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 11-oktabrdagi 24-sonli xatini inobatga olinsin.

2. Quyidagi:

- Sharof Rashidov ko‘chasining “Do‘stlik” hamda “Toshkent” mahallari hududidan o‘tgan yo‘lining (880 metrdan 1 km) oralig‘ining chap tarafiga “Toshkent” mahallasi hududidagi tuman hokimligi binosining oldida 1 dona 3,28 avtomobillarining bir tomonlama to‘xtab turishi taqiqlanadi belgisini, shuningdek, yo‘lning (880 metrdan 1 km) oralig‘iga 2 dona sun’iy notekislik belgisini o‘rnatish hamda YUR-24 kanali yonidan og‘ir yuk (gabariti baland) avtomashinalarning harakatini cheklovchi (shlagbaum) o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (R.Zavqiyev)ga yangi o‘rnatilayotgan yo‘l belgilarining amaldagi davlat namunasi (davlat standarti) asosida bo‘lishini qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Y.Akaboyev) va IIB YHXB (G‘.Erbekov)larga piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Amanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Ashurov**